

BUYRUQ

2023-y. «23» 10 № 63

“Ketrinq” MChJ korrupsiya xolatlari bo'yicha kelib tushgan habarlarni qabul qilib olish va ko'rib chiqish Qoidasini amalga kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida belgilangan talablar va 2023-yil 30-avgust kuni yuborilgan 04-843 sonli hatida “Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarning faoliyati, moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish va korrupsion risklarni kamaytirish” mavzusida o'tkazilgan seminar yig'ilish bayonida belgilangan vazifalarni sifatli bajarish maqsadida.

BUYURAMAN:

1. “Ketrinq” MChJ korrupsiya xolatlari bo'yicha kelib tushgan habarlarni qabul qilib olish va ko'rib chiqish qoidasi (1-ilova) ilovaga muvofiq tasdiqlansin va 2023-yil 23-oktyabrdan amalga kiritilsin.

2. “Ketrinq” MChJ Direktorining o'rinbosarlari, xizmatlar, bo'limlar rahbarlari, shuningdek umumiy boshqaruv va barcha mansabdor xodimlari:

2.1. “Ketrinq” MChJ korrupsiya xolatlari bo'yicha kelib tushgan habarlarni qabul qilib olish va ko'rib chiqish qoidasi o'rganib chiqilsin, barcha hodimlarga aloqa kanallari yetkazilsin.

3. “Ketrinq” MChJ Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat yetakchi mutaxassisi:

3.1. Korrupsiya xolatlari bo'yicha habar berish aloqa kanallari “Ketrinq” MChJ hodimlari va tashrif buyuradigan fuqarolarga ko'rinadigan e'lonlar doskalariga joylashtirilsin.

3.2. Xalqaro va milliy iste'molchilar, “Ketrinq” MChJning biznes sheriklari, buyurtmachi va ijrochi hamkorlar hamda tadbirkorlarga korrupsiya xolatlari bo'yicha habar berish aloqa kanallari rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilinsin.


3.3. Korrupsiya xolatlari bo'yicha aloqa kanallari orqali kelib tushgan habarlarning konfidentsialligi va habar bergan fuqarolar shaxsining mahfiyligi ta'minlansin.

3.4. “Ketrinq” MChJga kelib tushgan habarlar O'zbekiston Respublikasining qonunlari va mazkur Qoida asosida ko'rib chiqilsin.

4. Buyruq “Ketrinq” MChJ Direktorining o'rinbosarlari, xizmatlar, bo'limlar rahbarlari, shuningdek korxonalar xabar berishi va boshliqlariga yetkazilsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Direktorning o'rinbosari U.B.Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



A.A. Madjitov